

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAYDULLAYEVA NARGIS ILHOMOVNA

**BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA)**

13.00.08 -Maktabgacha ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Saydullayeva Nargis Ilhomovna

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (integrativ yondashuv asosida).....3

Сайдуллаева Наргис Илхомовна

Совершенствование методики развития творческой компетентности будущих педагогов (на основе интегративного подхода).....25

Saydullayeva Nargis Ilhomovna

Improving the methodology of developing the creative competence of future educators (based on an integrative approach).....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAYDULLAYEVA NARGIS ILHOMOVNA

**BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA)**

13.00.08 -Maktabgacha ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi veb-saytida B2022.1.PhD/Ped3293-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.vocedu.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipova Dilyara Djumaniyazovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Djamilova Nargiza Nuritdinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xushnazarova Mamura Nodirovna,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)., dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutahassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 64-uy. Tel: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; e-mail: mtm-malaka.oshirish@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutahassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 64-uy. Tel.: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; e-mail: mtm-malaka.oshirish@exat.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____kuni tarqatildi.
(2024 yil «___» _____dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

N.H.Raxmankulova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

Sh.E.Ne‘matov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, p.f.n., dotsent

K.D.Riskulova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ta'limning integratsiyalashuvi jarayoni bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda shaxs intellektini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning eng ilg'or ta'lim markazlari (Center for Creative Leadership Courses, MOOC)da bo'lajak mutaxassislarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual va emotsional yetuk, jismoniy barkamol hamda atrof-olam haqidagi bilish jarayonlarini rivojlantirishga kreativ yondashuv modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mehnat bozori talablari asosida ta'lim xizmatlarining innovatsion usullarini amaliyotga joriy etish orqali kasbiy fikrlash va ijodiy yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda hozirgi kunda yosh avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish orqali ijodkor yoshlarni tayyorlashning ilmiy-metodik bazasini taomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyatga tayyorlashda bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini integrativ yondashuv asosida kreativ kompetentligini rivojlantirish bilan bog'liq metodik ishlarni takomillashtirishda zamonaviy didaktik vositalar va elektron axborot resurslarni joriy etish, ularning ta'lim vositasi sifatidagi ahamiyatini belgilash bilan bog'liq masalalar pedagogik ta'limning dolzarb vazifalari sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda bo'lajak tarbiyachini tayyorlashda yangicha yondashuv va ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois "Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida "...xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish"¹ muhim vazifa sifatida belgilangan. Ta'lim tizimida kompetensiyaviy talablarga javob beradigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarblikni kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"² ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida kasbiy faoliyatga tayyorlashda bo'lajak tarbiyachilarni

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-son Farmoni

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022–2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2022-yil, 6-son, 70-modda.

integrativ yondashuv asosida kreativ kompetentligini rivojlantirish shakllantirish va rivojlantirishning amaldagi metodlari va vositalarini takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati ortmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda 595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019- yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 22-dekabrda 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 11-iyundagi 487-son “Maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 28-dekabrda 1026-son “Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 13-maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘daniy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizning pedagog olimlaridan D. Sharipova, Sh. Sharipov, U. Inoyatov, N. Egamberdieva, O. Musurmonova, M. Ahmedov, N. Muslimov, V. Abduazizova tomonidan bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbga yo‘naltirish va kasbga o‘rgatish, ulardagi kasbiy sifatlarni rivojlantirishning dolzarb masalalari hamda bo‘lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatlari, shu bilan birga ijodiy faoliyatining ilmiy xususiyatlari, pedagogik ijodkorlikning didaktik mazmun va ta‘minoti, shuningdek, ulardagi tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish usul va shakllari ishlab chiqilgan. Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish va kreativ o‘qitish muammolari bo‘yicha A. Aripjanova, G. Ibragimova, G. Kodirova, Sh. Pozilova, F. Sodiqova, G. Ibragimova, K. Yusupova, M. Urazova, tomonidan o‘rganilib ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi tarbiyalanuvchilarni har tomonlama kamol toptirish, ta’lim-tarbiya berish, kelajak avlodni intellektual, jismoniy, ekologik, estetik, axloqiy va ijtimoiy-hissiy rivojlantirishga bog‘liq masalalar F. Qodirova, G.Djanpeisova, T.L.Xurvalieva, Z.Azizova, R. Nosirova, D.A.Abdurahimova, N.Sh.Abdullaeva, Z.H.Rahmatova, M.N.Xushnazarova, G.M. Nazirova, Sh.Shodmonova, M.N. A‘zamova ilmiy

ishlarida tadqiq qilingan. Integrativ yondashuvga asoslangan qator tadqiqot ishlar R.Mavlonova, B.S.Abdullaeva, G.N. Akvileva, D.I. Troytap, G.V.Baltyukova, N.M. Drujnina tomonidan olib borilgan.

MDH va xorij davlatlarida L.N.Axmatova, V.D.Eremeeva, T.P.Xrizman, A.L.Sirotyuk, O.A. Safonova, A.V.Svetkov, L.A Venger, A.N. Belkova kabi tadqiqotchilarning ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda tarbiyalanuvchilarining ota-onalari bilan o‘zaro munosabatlarining o‘ziga xos shakl va usullarini o‘rganish masalalari yoritilgan.

Xorijiy olimlardan J. P.Guildford, P. Drapeau, E. P.Torrance, S. Arieti, S. R.Magini, J. Robert, Sternberg kabi olimlar shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlarini tadqiq etib, shaxsning kreativlik modelini ishlab chiqishgan. Yuqorida o‘rganilganlarga ko‘ra, mamlakatimizda va xorijda bo‘lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bo‘lajak tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi to‘laqonli takomillashtirilmaganligini qayd etish mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish sharoitida oliy ta‘lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini yaratish va amaliyotga tadbiq etish muammolari” (2022-2026) mavzusidagi ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini integrativ yondashuv asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning metodik modelini takomillashtirish;

bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta‘minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Qo‘qon davlat pedagogika instituti va Buxoro davlat universitetining maktabgacha ta‘lim yo‘nalishida tahsil oladigan talabalar ishtirok etishdi.

Tadqiqotning predmetini oliy ta‘lim muassasasi maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shartlari, rivojlantirish bosqichlari, usul va vositalari, o‘quv-uslubiy ta‘minoti tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlar va monografiyalar tahlil, analitik usul, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, intervyu, pedagogik tajriba, matematik-statistik tahlil, natijalarni umumlashtirishning kompleks usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari bolalar yosh xususiyatlariga oid psixodiagnostik usullarni integratsion faoliyat mazmuniga pragmatik va empirik jihatdan singdirish asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli talabalar faoliyatini interfaol muhitga integratsiyalash strategiyalarini ijodiy muhitning adaptiv-motivatsion, optimal-tadqiqot, integratsion-transformativ bosqichlarida variativligiga ko'ra qo'llash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi nostandart qarorlarni qabul qilishga undovchi o'quv topshiriqlarini vizuallasgan yakka, guruhli ish shakllarida individual yo'nalganlikda qo'llash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti talabalarning tezkor fikrlash, intensiv tahlil va shaxsiy-ijodiy ko'nikmalarini barqaror rivojlantiruvchi integrativ ish turlarini individual kreativlik mezonlari va sinergetik tamoyillar ustuvorligida transformatsiya qilish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligi” tushunchasi mazmun mohiyati ochib berildi, shuningdek, uning rivojlanishi, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini va zamonaviy talablar asosida faoliyat yuritishini ta'minlaydigan baholash mezonlari, ko'rsatkichlari takomillashtirilgan;

“Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari” nomli uslubiy qo'llanma yaratildi, ilmiy maqolalar chop etildi, tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Bo'lajak tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan “Qizil va rangli kartochkalar bilan ishlash metodi”, “Kubik-kubik” metodi”, “Mind map” (Aql xaritasi) metodi kabi usullar va “Ijodiy ustaxonalar” texnologiyasi, “Integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi” asosida takomillashtirilgan interfaol-metodik xarakterdagi muammoli vaziyatlar va kreativ amaliy topshiriqlar imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot davomida olingan natijalar nazariy-uslubiy jihatdan asoslangan, ilmiy tadqiqotning izchil bajarilganligi, mantiqiy yondashuvga egaligi, tanlangan usublarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga to'liq mosligi, xorij va yurtimiz olimlarining ilmiy- tadqiqotlaridagi ilmiy xulosalar va tavsiyalarga asoslanganligi, dissertatsiyada keltirilgan amaliy taklif va tavsiyalar bo'lajak tarbiyachilarning tafakkur tarzini rivojlantirishga yo'naltirilganligi, natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mazmuni kasbiy faoliyat xususiyatlari o‘ziga xoslik, ijodkorlik, rivojlanganlik, moslashuvchanlik mezonlarni nostandart fikrlash, tavakkalchilik, bashorat qilish va integrativlik, operativlik mezonlari integratsiyasi bosqichlari, usul va vositalari kreativ sifatlarni rivojlantirish metodikasi mazmunini boyitish, usul va vositalarini takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning tajriba-sinov dasturini yaratilganligi, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi ijodiy faoliyatga yo‘naltirish bo‘yicha umumkasbiy fanlar dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish o‘quv-tarbiya jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etishning uslubiy ta‘minotini yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari fundamentallik, amaliy yo‘nalganlik, ijodiy faollik tamoyillarini integratsion faoliyat mazmuniga pragmatik va empirik jihatdan singdirishga oid taklif va tavsiyalardan “Oydin Hayot” sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish markazida bajarilgan A1-FQ-010040 raqamli “Ta’limda sog‘liqni saqlash-sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashning samarali usuli” mavzusidagi loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Nizomiy nomidagi TDPuning 2023-yil 07-fevraldagi 02-07-345/04-son ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga erishilgan;

bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli talabalar faoliyatini interfaol muhitga integratsiyalash strategiyalarini adaptiv-motivatsion, optimal-tadqiqot, integratsion-transformativ bosqichlarda variativligiga ko‘ra qo‘llashga doir taklif va tavsiyalaridan “Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari mutaxassislarining kreativ kompetentligi rivojlantirish metodikasi” nomli dasturiy platformani yaratishda foydalanilgan (Oliy ta’limni rivojlantirish markazining 2023-yil 20-noyabrdagi 02/01-01-162-son ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasida foydalaniladigan metod va vositalari takomillashtirilgan;

bo‘lajak tarbiyachilarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi nostandart qarorlarni qabul qilishga undovchi o‘quv topshiriqlarini yakka, guruhli ish shakllarida individual yo‘nalganlikda qo‘llash hamda bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarda kreativlik kompetensiyasini

rivojlantirishning didaktik ta'minoti talabalarning tezkor fikrlash, intensiv tahlil va shaxsiy-ijodiy ko'nikmalarini barqaror rivojlantiruvchi integrativ ish turlarini kreativlik mezonlari va sinergetik tamoyillar ustuvorligida transformatsiya qilishga oid taklif va tavsiyalari pedagogika sohasi Davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish markazining 2023-yil 20-noyabrdagi 02/01-01-162-son ma'lumotnomasi). Natijada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 4 ta xalqaro hamda 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilingan

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (4 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativlik g'oyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ qobiliyatlariga pedagogik-psixologik yondashuvi, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ qobiliyatlari rivojlantirishning integrativ yondashuv masalalari yoritilgan.

Respublikadamizda uzluksiz ta'lim tizimini to'g'ri tashkil etish, bilim olish va har tomonlama barkamol, sog'lom shaxsni shakllantirish, har qanday qatlam vakillari uchun sifatli va qulay bo'lgan ta'limni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimini yuksak darajaga olib chiqish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini va ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'lida jahonning yetakchi tashkilotlari bilan hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Hususan, O'zbekiston va UNESCO hamkorlikda ko'p rejali va tasirchan hamkorlik hayotga tatbiq etilmoqda. 2018 yil oktabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Parijdagi UNESCO bosh qarorgohiga tashrifi chog'ida imzolangan «Mamlakat bo'yicha dastur»ga binoan, talim, madaniyat, fan va AKTni rivojlantirish kabi muhim yo'nalishlar bo'yicha loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib ta'lim sohasi va turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimni yaratish ko'zda tutildi.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga oliy ma'lumotli kadrlar qamrovi choralari kuchaytirildi, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida hamda kreativlik masalalari borasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi maxsus o'rganilmaganligi mazkur muammo yuzasidan alohida izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Pedagogikada kreativlik turli xil kutilmagan vaziyatlar, masalan muammoli vaziyatlar nuqtai nazaridan qaraladi hamda umuman olib qaralganda, har qanday doimiy o'zgaruvchan sharoitlarda cheksiz muammolarni hal qilish qobiliyatidir.

M.N.Xushnazarova ilmiy tadqiqot ishida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish masalalari hamda tarbiyachilarni ilmiy metodik faoliyatga tizimli yo'naltirish ishlarini tashkil etish, ularni muvofiqlashtirish hamda innovasion mashg'ulot ishlanmalarini ta'lim-tarbiya jarayonlariga keng joriy etishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligini e'tirof etgan.

G.N.Ibragimova kreativlik - shaxsning ijodkorlik va yaratuvchanlik xislatlari bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalari majmui bo'lib, bular o'zida muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, tadqiqotchilik va refleksiya, fantaziyani qamrab oladi deya ta'kidlagan

Sh. Pozilovanning olib borgan tadqiqot ishlarida kreativlikni pedagog va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabat, o'zaro ta'lim oluvchi yoki ma'lum bir vosita orqali ta'lim oluvchi orasidagi jarayon bo'lib, u shaxs kreativligini rivojlantirishga xizmat qiladi, degan ta'rifni ko'ramiz.

A.A.Aripjanova ilmiy izlanishlari davomida kreativlikni o'rganish bilan birga pedagog shaxsining kasbiy faoliyatidagi o'ziga xos hususiyatlari va yondashuvlarni hisobga olgan holda, pedagog kadrlarning kreativ salohiyatini shaxsiy, faoliyatli, samarali, muammoli va muhitga doir aspektlarda ko'rib chiqish lozim ekanligini aniqlagan.

G. Kodirova o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida o'quv tadqiqot faoliyat usullariga o'rgatishda ularning kreativ fikrlashlarini rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayoni samarali kechadi, degan fikrni ilgari surgan.

E.S.Rapasevich ishlarida kreativlik turlari pedagog shaxsining yangi yangi ilmiy bilimlarni ishlab chiqarishiga, yangi pedagogik tizimlarni ishlab chiqish,

pedagogik - yangi usullar, tamoyillar, yangi sanat asarlarini yaratish faoliyatiga bog'liqligi ilmiy asoslangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarida talabalarga mutaxassislik fanlari darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalangan holda kreativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, ularning kelgusi faoliyatlarida "Ilk va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga qo'yiladigan talablar" asosida mashg'ulotlarni tashkil etishlarida kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirishning asosiy omili deb hisoblasak, mubolag'a bo'lmaydi. Kreativ shaxs maqomiga ega bo'lish - hamisha qandaydir yangilikni yaratish, originallikka erishishdir. Kreativ yondashuv – bu har qanday hayotiy jarayonga tegishli tafakkur qobiliyati. Mazmuniga ko'ra kreativlik – bu har kungi hayotda: ishda, munosabatlarda, o'qishda va o'z ongini boyitishdagi kreativ kompetentlikdir.

Kreativlik tushunchasiga berilgan yuqoridagi olimlar fikrlaridan kelib chiqqan holda tadqiqtochi tomonidan quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Kreativlik - bu ma'lum bir kontekstda qimmatli yoki mazmunli bo'lgan yangi g'oyalar, echimlar yoki iboralarni yaratish qobiliyatini o'z ichiga olgan ko'p qirrali tushuncha. Bu an'anaviy fikrlash shakllaridan voz kechish va yangi istiqbollarni, aloqalar yoki kombinatsiyalarni o'rganish jarayonini o'z ichiga oladi. Kreativlik ko'pincha o'ziga xoslik, tasavvur, sezgi va turli xil fikrlashni o'z ichiga oladi – me'yordan yoki standart echimlardan ajralib turadigan fikrlash.

Kreativlikning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- O'ziga xoslik: mavjud tushunchalar yoki asarlarni taqlid qilish yoki takrorlash emas, balki yangi yoki noyob bo'lgan g'oyalar yoki iboralarni ishlab chiqarish.

- Moslashuvchanlik: muammoga bir nechta istiqbollarni, yondashuvlarni yoki yechimlarni ko'rib chiqish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish.

- Ravonlik: Ko'pincha aqliy hujum yoki erkin assotsiatsiya orqali, dastlabki mulohazalar yoki baholashlar haqida qayg'urmasdan, katta miqdordagi g'oyalar yoki yechimlarni yaratish.

- Ishlab chiqish: batafsilroq yoki nozik ifodalarni yaratish uchun tafsilotlar, chuqurlik yoki murakkablik qo'shish orqali g'oyalar yoki tushunchalarni ishlab chiqish va takomillashtirish.

- Muammolarni hal qilish: to'siqlarni yengish, innovatsion echimlarni topish yoki fan va texnologiyadan san'at va adabiyotgacha bo'lgan turli sohalardagi muammolarni hal qilish uchun ijodiy fikrlashni qo'llash.

- Hissiy va estetik jalb qilish: Tasviriy san'at, musiqa, adabiyot yoki ifodaning boshqa shakllarida ijodiy ishlar yoki ifodalar orqali his-tuyg'ularni uyg'otish, qiziqish uyg'otish yoki ilhomlantiruvchi minnatdorchilik.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlanib, unda bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini amalga oshirishning shakl, uslub, vositalari va texnologiyalari, bo'lajak

maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish muammolari o'rganilgan. Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun pedagogik modellashtirishga tayanamiz. Pedagogik modellashtirish tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, bu ma'lum bir ijtimoiy-madaniy makon doirasida ta'lim jarayonining tarkibiy va konseptual xususiyati, protsessual va konseptual, individual tomonlarini modellashtirish orqali pedagogik obektlarni o'rganishdir. Pedagogik loyiha ustida ishlashning dastlabki bosqichida qiladigan ishimiz bu-model yaratishdir. Model ishlab chiqish - pedagogik jarayon, vaziyat yoki tizimni yaratishning umumiy g'oyasi va maqsadga erishishning asosiy usullarini ishlab chiqishdir. Olib borayotgan ilmiy tadqiqotimiz uchun bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-mazmun modelini ishlab chiqish zarur.

Biz loyihalashtirilgan modelning asosiy strategik maqsadi sifatida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni belgilab oldik. Ushbu maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilanadi:

- ta'limda yondashuvlarni shaxsiy yo'nalishdan kelib chiqqan holda tanlash. Yondashuvlarni o'rganish va to'g'ri tanlash faoliyatimizning maqsadini, shu bilan birga biz foydalaniladigan vositalar doirasini ko'rib chiqish jihatlarini cheklash uchun zarurdir. Ushbu vazifani ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va psixologik texnologiyalari kiritish orqali hal qilish kerak;

- bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining ta'lim jarayonidagi faoliyat faolligini oshirish muammosi ularda kelgusidagi kasbiy faoliyatga qiziqishni orttirishga imkon beradigan ta'lim shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni tanlash orqali hal qilinadi;

- maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak tarbiyachilarni kreativligini rivojlanish bosqichlarini aniqlash va tavsiflash;

- maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni kreativ kompetentligini rivojlanish mezonlari va darajalarini aniqlash;

- bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish va samaradorligini tekshirish;

- natijalarni tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish.

Modelni tizimli ravishda ishlab chiqish jarayonini yondashuvlarni tanlashdan boshladik. Ilmiy tadqiqot ishimiz uchun yetakchi yondashuv sifatida shaxsga, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar bilan bir qatorda integrativ yondashuvlarni tanladik. Yondashuvlar nafaqat pedagogik nazariyani, shu bilan birga amaliyotni ham rivojlantirishda maxsus ilmiy kategoriya sifatida asos hisoblanadi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-mazmun modelini ishlab chiqish uchun biz bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish vazifasini belgilab oldik.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni tanlash talabalarning shaxsiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Faoliyat yondashuvining bilim va ko'nikmalarga qarama-qarshi emasligi, aksincha uning tarkibiy qismi sifatida qaralishi ushbu yondashuvning o'ziga xos xususiyatidir. Integrativ yondashuv bu kreativlikning

rivojlanishiga ta'sir qiladigan har bir tashqi omilni hisobga oladi, shuningdek, bir nechta yondashuvlarni birgalikda qo'llashga, kasbiy hususiyatlarni ijodiy jarayon sifatida aks etishini hisobga olish imkonini beradi (1-rasm).

<p>Asosiy vakillar:</p> <p>Gilford.G, Uolles Mayer, S.Krippner, P.R.A. Finke, Dj. Dillard Salovey, Vard. T.V., Smit S.M.E de Bono</p>	<p>Yondashuv nomi</p> <p>KOGNITIV</p>	<p>Mazmuni: ijodkorlik, ijodkorlik bilan bog'liq kognitiv jarayonlar va hissiyotlarni o'rganish, fikrlash jarayonining bir qismi</p>
<p>T.Amabayl, F.Berron A. Maslou, T. Lyubart M.A. Kollins, X.Ye. Gruber, D. B. Uollas</p>	<p>SHAXSGA</p>	<p>Mazmuni: ijodiy shaxsning xususiyatlari va xususiyatlarini o'rganish; rag'batlantiruvchi omillar ijodiy ta'sir qilish jarayoni ijodkorlik va ijtimoiy muhit uchun motivatsiya</p>
<p>D.Xokins, D.K.Saymanton, M.G. Gardner, M.Mamford, R.Sternberg</p>	<p>INTEGRATSION</p>	<p>Mazmuni: Insonning ijtimoiy, madaniy muhitini, ijoskorligi va ijodini uning ijodiy faoliyati amalga oshiriladigan sohalar bilan munosabati</p>
<p>L.Rubinshteyn, N.S.Leites</p>	<p>FAOLIYATGA</p>	<p>Mazmuni: Shaxsning ijoskorligi, aqliy xususiyatlarini muayyan faoliyat turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shartlarini o'rganish</p>

1-rasm. Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvlar

Modelni tizimli ravishda ishlab chiqish jarayonini yondashuvlarni tanlashdan boshladik. Ilmiy tadqiqot ishimiz uchun yetakchi yondashuv sifatida shaxsga, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar bilan bir qatorda integrativ yondashuvlarni tanladik. Yondashuvlar nafaqat pedagogik nazariyani, shu bilan birga amaliyotni ham rivojlantirishda maxsus ilmiy kategoriya sifatida asos hisoblanadi. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari kreativ kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-kontent modelini ishlab chiqishni va uni amalga oshirishni bosqichma bosqich amalga oshiramiz:


1-bosqich- Adaptiv-motivatsion: – birinchi bosqichning asosiy maqsadi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga moslashtirish va motivatsion

munosabatini shakllantirish, kasbiy va kreativ kompetentlik haqida asosiy bilimlarni O'zlashtirish, kreativ sifat va qobiliyatlarini hamda pedagogik faoliyatga birlamchi tayyorgarlikni shakllantirishdir. Kreativ kompetentlikni rivojlantirish muammosini hal qilish uchun O'quv faoliyatining O'ziga kiritilgan motivlar ya'ni bo'lajak tarbiyachilarning yangi faktlarni O'rganishga va muammoli vaziyatlarda to'siq va qarama-qarshiliklarni yengishga bo'lgan hohish-istagi maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tayyorgarlik bosqichi bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan ichki ehtiyojlarini va kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun ahamiyatini, talabalarning qiziqishlarini, rivojlanish darajasini hamda shaxsiy ko'rinishlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmuni, metod va vositalarini tanlashga, kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ichki ehtiyojni anglashga qaratilgan.

2-asosiy bosqich - Optimal-tadqiqot: – bo'lajak tarbiyachilar kreativ faoliyatni tashkil etishning nazariy asoslarini, maktabgacha ta'lim yo'nalishida ijodkorlik va kreativlikni rivojlantirishning turli uslub va usullarini o'rganish, nostandart vazifalarni optimal darajada hal qilish hamda kreativ yondashish metodlarini o'zlashtirishlari, tadqiqotchilik malakalarini rivojlantirish, shuningdek loyihalash bo'yicha kompetentlikka ega bo'lishlari bilan amalga oshiriladi. Bo'lajak tarbiyachilarning kelgusidagi kasbiy faoliyatning yuqori samaradorligi, murakkab vaziyatlarda o'z shaxsiy fazilatlariga tayanishga hamda muammolarni hal qilishning yangi usullarini izlashning ilmiy asoslarini aniqlashga, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyat tizimini ishlab chiqish va amaliyotda foydalanishlariga qaratilgan.

3-bosqich – integratsion-kreativ: bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari o'z kasbiy faoliyatlarida nostandart va original qarorlar qabul qilishni talab qiluvchi pedagogik vaziyatlarni amaliyotdan o'tkazishadi. Ular ta'lim olish va kreativ faoliyatga bo'lgan motivatsiyani namoyon etishadi, kreativ tafakkur, xissiy obrazli tuyg'ular va intellektni bir butunga birlashtirish, kasbiy faoliyatda bir nechta yondashuvlarni birgalikda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lganliklarini amaliyotda qo'llaydilar. Fikrlashning o'ziga xosligi va moslashuvchanlikning dolzarblashtirish uchun maktabgacha ta'lim mutaxassislik fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni namoyon etishadi. Ushbu bosqichda biz tomonimizdan belgilangan mezon va darajalar bo'yicha bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligi diagnostika qilinadi. Ushbu bosqichning vazifasi qo'yilgan maqsadga to'liq ko'rinish berishdir. Amaliy tayyorgarlik jarayoni bo'lajak tarbiyachilarni ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish; motivatsiya va rag'batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish; innovatsion yondashuv va pedagogik muammolarning yechimini topishga kreativ yondashishga tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentlikni rivojlantirish yo'llari ta'limni tashkil etish shakllariga bevosita bog'liq bo'lib, bular ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim tarzida tashkil etiladi. Kreativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonida biz foydalanadigan asosiy metodlar quyidagilardir: Tashkiliy-faoliyatli; ijodiy topshiriqlar, kognitiv-evristik; interaktiv; ijodiy izlanishli; O'yinli; loyihalash; muammoli; axborotli; innovatsion.



2-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kreativ kompetentligini rivojlantirish modeli

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-mazmun modelini ishlab chiqish uchun biz bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish vazifasini belgilab oldik.

Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli talabalar faoliyatini interfaol muhitga integratsiyalash strategiyalarining ijodiy muhitning quyidagi uch asosiy bosqichlarida variativligiga asoslanadi: **adaptiv-motivatsion, optimal-tadqiqot, va integratsion-transformativ bosqichlari**. Ushbu ilmiy yangilikning mohiyati quyidagicha tavsiflanadi:

1. Adaptiv-motivatsion bosqich:

o Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish uchun dastlabki tayyorgarlik muhitini yaratish, ularning qiziqishi va motivatsiyasini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu bosqichda metodik model interfaol texnologiyalar orqali ijodiy muhitga moslashish va ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olishni ta'minlaydi.

o Interaktiv dars va faoliyatlar orqali talabalarni ijodiy fikrlashga rag'batlantiruvchi shart-sharoitlar yaratildi.

2. Optimal-tadqiqot bosqich:

o Talabalarning ijodiy salohiyatini amalda qo'llash va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu bosqichda ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va innovatsion yechimlarni topish asosiy vazifa hisoblanadi.

o Interfaol muhit talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qiladigan va nazariy bilimlarni amaliyot bilan integratsiya qiladigan vositalar orqali rivojlantirilgan.

3. Integratsion-transformativ bosqich:

o Talabalar ijodiy kompetentligini rivojlantirishning yakuniy bosqichi bo'lib, bunda ularda hosil qilingan bilim va ko'nikmalarni transformatsiya qilish, amaliy masalalarda innovatsion yondashuvlarni qo'llash nazarda tutiladi.

o Ushbu bosqichda ijodiy muhit talabaning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashadi va kelajakdagi professional faoliyatga tayyorlaydi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonining modeli o'z ichiga maqsad va vazifalar, tarkibiy qismlar, pedagogik shart-sharoitlar, tamoyillar, bosqichlar, shakllar va usullarni, vositalar, mezonlar, ko'rsatkichlarni va natijani o'z ichiga oladi. Bo'lajak tarbiyachilar kelgusida pedagogik kasbiy faoliyatlarida hayotiy tajribaga tayangan holda kasbiy muammolarni hal qilishda mustaqil kreativ yondashishga, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga, tashkilotda hamkorlik ishlarini kreativ yondashuv asosida tashkil etishga yo'naltiriladilar. Fikrimizcha, bo'lajak tarbiyachilarning kreativ salohiyatini oshirish va kreativ faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga kreativlik salohiyatini rivojlantirishda oliy ta'lim muassasasida ta'limni tashkil etish mobaynida talabalarni ijodiy faoliyatga jalb etish bo'yicha asosiy psixologik-pedagogik

talablarni bajarish bilan birga bunday faoliyatning mazmuniga qo'yilgan maqsadga va talabalarning individual hususiyatlariga mos keluvchi metodlarni tanlash ham katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak tarbiyachilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti talabalarning tezkor fikrlash, intensiv tahlil va shaxsiy-ijodiy ko'nikmalarini barqaror rivojlantiruvchi integrativ ish turlarini individual kreativlik mezonlari va sinergetik tamoyillar ustuvorligida transformatsiya qilish asosida takomillashtirildi.

- **Didaktik ta'minotning takomillashtirilgan modeli:** Bo'lajak tarbiyachilarning kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish uchun didaktik ta'minotning yangi modeli ishlab chiqilgan bo'lib, unda individual kreativlik mezonlari asosida talabalarning tezkor fikrlash, intensiv tahlil va shaxsiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan integrativ ish turlarini transformatsiya qilish tamoyillari belgilangan.

- **Sinergetik tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish:** Kreativlik kompetensiyasini rivojlantirishda sinergetik tamoyillarni ustuvor qo'llash orqali integrativ yondashuv shakllantirilgan. Bu yondashuv orqali talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatlari ko'rsatkichi yaxshilangan.

- **Individual kreativlik mezonlari:** Talabalarning kreativlik darajasini baholash uchun yangi mezonlar ishlab chiqilib, bu mezonlar asosida ularning fikrlash jarayonlari, analitik salohiyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuv taklif qilingan.

- **Integrativ ish turlarining optimallasuvi:** Talabalarning tezkor fikrlash va intensiv tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi integrativ ish turlarining metodik va amaliy aspektlari transformatsiya qilingan hamda bu usullar o'quv jarayonining barqaror samaradorligini ta'minlovchi vosita sifatida takomillashtirilgan.

